

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

No1

2026
yanvar



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 – Texnika fanlari

08.00.00 – Iqtisodiyot fanlar



Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB[™]
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE

ROAD

INDEX
COPERNICUS
INTERNATIONAL

BASE

Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU



ISSN: 3060-463X

РЭУ.РФ
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ



muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr, 483 sahifa.
2026-yil, yanvar

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afarovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Botirali Roxataliyevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

Yusupov Maxamadamin Abduxamidovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor

Kalonova Moxigul Baxritdinovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor.

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Norboyev Odil Abrayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellash
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK

Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

ИНСТИТУЦИОНАЛЬНЫЕ И ТЕХНОЛОГИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ЦИФРОВОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ ЖЕЛЕЗНОДОРОЖНОГО ТРАНСПОРТА УЗБЕКИСТАНА.....	26
Каракулов Фарход Зайпудинович	
TRANSPORT TIZIMIGA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISH VA TAKOMILLASHTIRISH USULLARI	33
Bababekova Gulchexra Baxtiyarovna	
QURILISH MATERIALLARI ISHLAB CHIQUARUVCHI KORXONALARNING SIFAT MENEJMENTI TIZIMINI BAHOLASH	38
Achilov Ilmurad Nematovich	
TURIZM OBYEKTLARINI RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA RIVOJLANTIRISHNING TASHKILIY-IQTISODIY MEKANIZMLARI.....	45
Toshtemirov Xojiakbar Qahramon o'g'li	
КАЧЕСТВО КРЕДИТНОГО ПОРТФЕЛЯ БАНКОВ УЗБЕКИСТАНА ЧЕРЕЗ ПРИЗМУ ПРОБЛЕМНЫХ КРЕДИТОВ	51
Алиева Сусанна Сейрановна	
ВЛИЯНИЕ ЛИБЕРАЛИЗАЦИИ И РЫНОЧНЫХ МЕХАНИЗМОВ НА РАЗВИТИЕ ОВЦЕВОДСТВА И КАРАКУЛЕВОДСТВА В ГЛОБАЛЬНОМ МАСШТАБЕ	58
Нуриллаев Жамолиддин Ярашевич	
BARQAROR INVESTITSİYALAR: IQTISODIYOTDAGI ROLI VA DOLZARBLIGI	65
Ruzibayeva Nargiza Xakimovna	
KRAUDFANDING – BARQAROR RIVOJLANISHNI AMALGA OSHIRISH UCHUN INNOVATSION MOLIYAVIY VOSITA SIFATIDA.....	71
Ashurova Oltin Yuldashevna	
FUQAROLIK JAMIYATI INSTITUTLARINI DAVLAT TOMONIDAN QO'LLAB-QUVVATLASHDA MOLIYAVIY BOSHQARUV SAMARADORLIGINI OSHIRISH MASALALARI.....	78
Xusanova Gulsum Baxtiyorovna	
QISHLOQ XO'JALIGI MAHSULOTLARI UCHUN BARQAROR BREND QIYMATINI SHAKLLANTIRISH STRATEGIYALARI	84
Bekmurod Davlatmurotovich Ollaberganov, Zilola Baxramovna Abdikarimova	
TADBIRKORLIK SUBYEKTLARI INVESTITSION JOZIBADORLIGINI OSHIRISHDA KORPORATIV BOSHQARUVNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	89
Atajanov Kamal Atavayevich	
AVTOTRANSFORMATORLARNING TASHQI MAGNIT MAYDONINING MATEMATIK MODELI	96
Pirmatov Nurali Berdiyarovich, Bekishev Allabergen Yergashevich, Baxriddinov Begzod Alibek o'g'li	
O'ZBEKISTON VA JAHON AMALIYOTIDA BUDJET MUASSASALARIDA BUXGALTERIYA HISOBINING RIVOJLANISHIGA RETROSPEKTIV TAHLIL	101
Berdiyev Toshkenboy Panjiyevich	
TIJORAT BANKLARIDA MUAMMOLI KREDITLARNI BOSHQARISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH: RISKGA ASOSLANGAN YONDASHUV VA AMALIY MEKANIZMLAR	108
Tojiyev Sardor Dilmurod o'g'li	
TIJORAT BANKLARI DEPOZIT BAZASINI MUSTAHKAMLASHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	113
Shayxiev Boburbek Ulug'bekovich	
DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIGI ASOSIDA OLIY TA'LIM TIZIMINI TRANSFORMATSIYA QILISHNING KONSEPTUAL MODELI.....	120
Abdullayev Javohir Abdumalik o'g'li	



GEODEZIYA VA GIS TEXNOLOGIYALARINING INTEGRATSIYASI.....	125
Ziynura sabirova	
RESPUBLIKADA UY-JOY QURILISHI SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA DAVLAT VA XUSUSIY SEKTOR HAMKORLIGINING O'RNI	129
Otajonov Tohirjon Xo'janazar o'g'li	
СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ СИСТЕМЫ СОЦИАЛЬНО-ТРУДОВЫХ ОТНОШЕНИЙ НА ПРЕДПРИЯТИЯХ ЖЕЛЕЗНОДОРОЖНОГО ТРАНСПОРТА АО «УЗБЕКИСТОН ТЕМИР ЙУЛЛАРИ» В УСЛОВИЯХ СТРУКТУРНЫХ РЕФОРМ.....	133
Кадилова Шарофат Амоновна	
KASBLARNI MODERNIZATSIYA QILISH VA MEHNAT BOZORINING YANGI MODELINI BARPO ETISH	139
Ruziyev Oybek Abdumuminovich, Nurboyev Jaloliddin Mamadiyevich	
O'ZBEKISTONDA AVTOMOBIL BIZNESINING RIVOJLANISH TENDENSIYALARI	143
Saidov Dilshodbek Razzakovich	
QISHLOQ JOYLARIDA MEHNAT RESURSLARIDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI BAHOLASH USULLARI	148
Amaniyazova Rayhan Bayniyazovna	
ЭКОНОМИЧЕСКАЯ ОЦЕНКА ЭКСПЛУАТАЦИОННОЙ УСТОЙЧИВОСТИ МАЛОМОЩНЫХ СЕТЕВЫХ СОЛНЕЧНЫХ ФОТОЭЛЕКТРИЧЕСКИХ СТАНЦИЙ В УСЛОВИЯХ УЗБЕКИСТАНА	153
Кудратов Афзалхужа Рустамович, Далмурадова Наргиза Нуриллаевна, Шогучкаров Санжар Кодирович	
MINTAQADA PARRANDACHILIK SANOATINI RIVOJLANTIRISHGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR VA ULARNING IQTISODIY SAMARADORLIKKA TA'SIRI	161
Qarshiyev Obidjon Egamberdiyevich	
INNOVATSION BANK EKOTIZIMLARINING TIJORAT BANKLARI RIVOJLANISHIDAGI ROLI	165
Aliyev Hasan Rayimjonovich	
ANALYSIS OF FACTORS OF INTENSIVE ECONOMIC GROWTH IN UZBEKISTAN	171
Sharipov Kamil	
SUN'IY INTELLEKT – TO'RTINCHI SANOAT INQILOBINING ASOSI.....	176
Kalonov Muxiddin Baxriddinovich	
KORXONALARDA MOLIVAVIY BOSHQARUVNING TASHKILY VA IQTISODIY MASALALARI	187
Jumayev Samariddin Ziyodullaevich	
YASHIL IQTISODIYOT KONSEPSIYASI ASOSIDA KICHIK BIZNES FAOLIYATINI OSHIRISH YO'LLARI	193
Isroilov Dilshodbek Rustamovich	
TALABALARDA O'Z-O'ZINI TARTIBGA SOLISH KO'NIKMALARINING RIVOJLANISHIDA INTERAKTIV TA'LIM PLATFORMALARINING O'RNI	198
Bozorova Muazzam Hamid qizi, Hakimova Gulnora Abdullo qizi, Hakimova Mushtariybonu Hamid qizi	
XIZMAT KO'RSATISH TARMOQLARIDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA MONOPOLIYAGA QARSHI NAZORATNING XORIJIY TAJRIBASI	203
Bekbutayev Nodirjon Fayzullayevich	
XORAZM VILOYATIDA KAMBAG'ALLIK DARAJASINING O'ZGARISHI VA BU JARAYONGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR TAHLILI	208
Mayliyeva Sadoqat Safayozovna	
IQTISODIY-MATEMATIK VA SSENARIYLI YONDASHUVLARDAN FOYDALANIB SANOAT RIVOJLANISHINI BAHOLASH VA PROGNOZLASH	213
Turdiyev Ulug'bek Qayumovich, Qayumova Nurafshona Ulug'bek qizi	
EKSPORTNI RIVOJLANTIRISH STRATEGIYALARINING DOLZARBLIGI	217
Abdivaliyev Shahzodbek Xayrullayevich, Mutalov Sultonbek Abduraim o'g'li, Baymanova Mavlyuda Djurayevna, Ubaydullayeva Gulchexra Erkabayevna, Aipova Iroda Ikramovna	



LEGAL AND INSTITUTIONAL FOUNDATIONS OF ECONOMIC COOPERATION BETWEEN THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN AND INTERNATIONAL FINANCIAL INSTITUTIONS	222
Yovkochev Sherzod	
ICHKI AUDIT FUNKSIYALARINING ICHKI NAZORATNI TA'MINLASHDAGI AHAMIYATI	228
Tursunov Shohruxmirzo Baxtiyor o'g'li	
MOSH DONINI YANCHIB Olishda qo'llaniladigan qurilmani loyihalash	232
Qurbanov Abdimalik Jo'rayevich	
DAVLAT BOSHQARUVIDA SAMARADORLIKNI BAHOLASH: INSTITUTSIONAL MEXANIZMLAR, RAQAMLI YECHIMLAR VA AMALIY KUTILMALAR	239
Sarvar Saidov Xayrulloevich	
O'ZBEKISTONDA TURIZMNI RIVOJLANTIRISH KONSEPSIYASI DOIRASIDA UNING INFRATUZILMASINI TASHKILIY-IQTISODIY MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH BORASIDA TAVSIYALAR	244
Tashov Mizrob Maxmudovich	
DAVLAT BOSHQARUV ORGANLARIDA INSON KAPITALINI BOSHQARISHNING TASHKILIY-IQTISODIY MEXANIZMLARI	251
Mashrabaliyev Ibroximbek Mashrabaliyevich	
ФИНАНСЫ И ВЫСШАЯ МАТЕМАТИКА В КОНТЕКСТЕ ГЛОБАЛЬНОГО РАЗВИТИЯ ЦИФРОВОЙ ЭКОНОМИКИ И ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВА	257
Айматова Фарида Хуразовна	
ZAMONAVIY IQTISODIY RIVOJLANISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING ROLI	263
Salayeva Dilafro'z Aybekovna	
ДИАГНОСТИКА синхронного двигателя на основе измерения внешнего магнитного поля	267
Пирматов Нурали Бердярович, Бекишев Аллаберген Ергашевич, Мамуров Алмас Жумабой угли	
XORIJIIY MAMLAKATLAR TAJRIBASI ASOSIDA SANOAT KORXONALARIDA INNOVATSION FAOLIYATNI RIVOJLANTIRISH YO'NALISHLARI VA XUSUSIYATLARI	275
Kurbanova Shaxnoza Yuldashbayevna	
СТРАТЕГИЧЕСКАЯ ОЦЕНКА СТОИМОСТИ КОМПАНИИ В СДЕЛКАХ СЛИЯНИЙ И ПОГЛОЩЕНИЙ	279
Ли Илларион Георгиевич	
KO'P YADROLI CPU VA GPU ARXITEKTURALARIDA DIFFERENSIAL TENGLAMALARNI SONLI YECHISH UCHUN PARALLEL ALGORITMLARNI ISHLAB CHIQISH VA SAMARADORLIGINI BAHOLASH	284
Ismailov Shixnazar Rashid o'g'li, Ubaydullayev Farrux Fathulla o'g'li, Odilov Asliddin Isoq o'g'li	
СИСТЕМАТИЧЕСКОЕ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ НАЛОГООБЛОЖЕНИЯ — ОСНОВА ПОВЫШЕНИЯ ЭФФЕКТИВНОСТИ ЭКОНОМИКИ	291
Муталов Абдуазим	
O'ZBEKISTONDA INVESTITSIYALARNING HUDUDIIY TARKIBI VA UNI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI	295
Ermamatov Shonazar Jumakulovich	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA INVESTITSIYA SIYOSATI: INSTITUTSIONAL VA RAQAMLI ISLOHOTLAR	302
Sobirov Yo'ldoshboy Ro'zimboevich	
QASHQADARYO VILOYATINING IJTIMOIIY-IQTISODIY SALOHIIYATI VA BARQAROR RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI	310
Tuyev Abdurahmon Yusubovich	
ТЕМИР YO'L STANSIYALARIDA STRELKALI O'TKAZGICH QURILMALARI BO'YICHA YO'L QO'YILGAN NOSOZLIKLAR VA ULARNING TAHLILI	315
Yunusova Gulshanoy Umarali qizi	



SANOAT KORXONALARIDA ASOSIY FONDLARDAN VA ISHLAB CHIQUVATIDAN SAMARALI FOYDALANISH YO'LLARI.....	320
Ulashev Xubbim Askarovich	
TURLI YO'L SHAROITLARIDA TO'QNASHUV PAYTIDA TORMOZLASH VA BOSHQARUV PARAMETRLARI	324
Uralbayev Anvar Ubaydullayevich	
YANGI YARATILGAN MAHALLIY DURAGAY PILLALARNI YAKKA CHUVISH NATIJALARINING TAHLILI.....	328
Sobirov Qo'ziboy Erkinovich	
UY-JOY KOMMUNAL XIZMAT KO'RSATISHNI ZAMONAVIY YO'LLARI.....	332
Boboqulov S.B.	
TARJIMON DASTURLARIDA MULTITILLARNI TASNIFLASH: MAVJUD YONDOSHUVLAR VA MUAMMOLAR	338
Maxmudjanova Sayyora Yashin qizi	
KICHIK BIZNES SUBYEKTLARIDA ICHKI AXBOROT TIZIMLARINING MODERNIZATSIYASI ORQALI ISHLAB CHIQUVATIDAN JARAYONLARINI OPTIMALLASHTIRISH	343
Yo'ldoshev Nodirbek Ne'matjon o'g'li	
NEFT VA GAZ TERMINOLOGIYASINING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISHINING NAZARIY ASOSLARI.....	349
Jo'rayeva Malohat Muhammadovna, Quryozova Gulshan Akmal qizi	
УСИЛЕНИЕ РОЛИ МЕЖДУНАРОДНЫХ ДЕНЕЖНЫХ ПЕРЕВОДОВ В ДОСТИЖЕНИИ УСТОЙЧИВОГО ЭКОНОМИЧЕСКОГО РОСТА В УЗБЕКИСТАНЕ	355
Гимранова О. Б.	
TIJORAT BANKLARI FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHDA INVESTITSIYA OPERATSIYALARINING AHAMIYATI.....	361
Yuldashev Fozil Turapovich	
QO'SHILGAN QIYMAT SOLIG'INI HISOBLASH VA UNDIRISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISHNING DOLZARB MASALALARI	373
Jumanazarov Alisher Toshtemir o'g'li	
ВЛИЯНИЕ КАЧЕСТВА ПУБЛИЧНОГО ФИНАНСОВОГО УПРАВЛЕНИЯ НА ДИНАМИКУ ЭКОНОМИКИ	377
Наимов Шохрух Шарофиддинович	
DIVIDEND SIYOSATINI SHAKLLANTIRISHDA FOYDA SIFATI VA FOYDANI BOSHQARISHNING TA'SIRI.....	383
Eshev Furqat A'zamovich	
ТРАНСФОРМАЦИЯ СИСТЕМЫ УПРАВЛЕНИЯ УМНЫМ ГОРОДОМ НА БАЗЕ ЦИФРОВЫХ ПЛАТФОРМ С ОРИЕНТАЦИЕЙ НА ЧЕЛОВЕКА	388
Рахимова Мадина Шухрат кизи	
XO'JALIK YURITUVCHI SUBYEKTLARDA HISOB SIYOSATINING USLUBIY JIHATLARI	393
Toshpo'latov A. A.	
MOLIYAVIY HISOBOT ISHONCHLILIGINI OSHIRISH YO'NALISHLARI.....	398
Zufarova Zilola Rahim qizi	
RAQAMLI PUL TIZIMINING KORRUPSIYA VA YASHIRIN IQTISODIYOTGA QARSHI KURASHDAGI INSTITUTSIONAL AHAMIYATI.....	403
Putatov Dilshod Xaqberdiyevich, Abdiyev Mansur Musurmonovich	
KICHIK TADBIRKORLIK SUBYEKTLARIDA SOLIQ HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH.....	408
Toshtemirov To'liqin Toirjonovich	
АКТИВИЗАЦИЯ ИНВЕСТИЦИОННОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ И ЭФФЕКТИВНОСТЬ ИНВЕСТИЦИЙ В СЕЛЬСКОМ ХОЗЯЙСТВЕ В УСЛОВИЯХ ПРИАРАЛЬЯ (НА ПРИМЕРЕ РЕСПУБЛИКИ КАРАКАЛПАКСТАН).....	411
Жоллыбеков Хурмет Бахыт улы	



KORPORATIV MUNOSABATLAR ISHTIROKCHILARINING HUQUQLARINI HIMOYA ETISH VA TA'MINLASHNING HUQUQIY-IQTISODIY SHAKLLARI.....	416
Rustamova Dilbar Rustamovna	
IQTISODIY TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA STRATEGIK MENEJMENTNI RIVOJLANTIRISHNING XORIJIY Tajribalari	423
Ismadiyarov Alisher Abduraxmon o'g'li	
METALLURGIK TEXNOGEN CHIQINDILARDAN KAMYOB METALLARNI AJRATIB Olish Texnologiyasi	427
Qayumov Oybek Azamat o'g'li, Ro'ziyev Ulug'bek Mamarasulovich, Abdullayev Farruh Odiljon o'g'li	
TRANSCHEGARAVIY ELEKTRON SAVDONI TAKOMILLASHTIRISHDA XO'JALIK ALOQALARI LOGISTIKASI.....	434
Yakubov Maksadxan Sultaniyazovich, Jumaboev Behzod	
YASHIL IQTISODIYOTGA INVESTISIYALARNI JALB QILISH	443
Raimjanova Madina Asrarovna	
O'ZBEKISTONDA ZARGARLIK XIZMATLARI BOZORINI RIVOJLANTIRISH YO'LLARI	448
Azizova Roxila Baxodir qizi	
XIZMAT KO'RSATISH KORXONALARI FAOLIYATIDA INVESTITSİYALARDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI BAHOLASHNING EKONOMETRIK MODELLASHTIRISH	452
Isakova Naima Ikromjonovna	
RIVOJLANAYOTGAN MAMLAKATLAR IQTISODIYOTIDA AJ "HUDUDIY ELEKTR TARMOQLARI" MOLIYAVIY BARQARORLIGINI MUSTAHKAMLASH YO'LLARI	459
Bo'ranboyeva Shoira Rustamovna	
"QISHLOQ HUDUDLARIDA XOTIN-QIZLARNING BARQAROR TURMUSH TARZINI TA'MINLASHDA NODAVLAT NOTIJORAT TASHKILOTLARINING O'RNI VA AHAMIYATI"	466
Xoliyorova Shoxista Qahramon qizi, Niyozova Ruxsora	
SMART TOURISM KAK INSTRUMENT USTOYCHIVOGO RAZVITIYA TURISTSKIX REGIONOV: МЕЖДУНАРОДНЫЙ ОПЫТ И РЕГИОНАЛЬНАЯ АДАПТАЦИЯ	471
Усманова Азиза Баходировна	
XUFIYONA IQTISODIYOT KO'LAMINI QISQARTIRISHDA SOLIQ MA'MURCHILIGINI RIVOJLANTIRISHNING TUTGAN O'RNI	477
Atamurodov To'liqin To'yurodovich, Mamatkulov Salimjon Rahmonkulovich, Abdiyev Mansur Musurmonovich	



XUFIYONA IQTISODIYOT KO'LAMINI QISQARTIRISHDA SOLIQ MA'MURCHILIGINI RIVOJLANTIRISHNING TUTGAN O'RNI

Atamurodov To'liq To'ymurodovich

iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),
Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi
Budjet-soliq ilmiy tadqiqotlari instituti direktori

Mamatkulov Salimjon Rahmonkulovich

Soliq, bojxona va tarif siyosatini takomillashtirish loyihasi bo'lim boshlig'i,
mustaqil izlanuvchi

Abdiyev Mansur Musurmonovich

Soliq, bojxona va tarif siyosatini takomillashtirish loyihasi yetakchi mutaxassisi,
mustaqil izlanuvchi

Annotatsiya. Maqolada respublikamizda yashirin (soya, xufiyona) iqtisodiyot kuzatilayotgan asosiy tarmoqlar, jumladan qishloq xo'jaligi, qurilish, xizmatlar sohasi va sanoat yo'nalishlari tahlil qilingan. Shuningdek, yashirin iqtisodiyotga qarshi kurashish doirasida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlarning samaradorligi baholanib, mazkur tadbirlar natijasida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan ayrim iqtisodiy va institutsional risklar inobatga olingan. Tadqiqot natijalariga asoslanib, soliq ma'murchiligini takomillashtirish orqali yashirin iqtisodiyot ko'lamini qisqartirishga qaratilgan amaliy takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: yashirin iqtisodiyot, qurilish sohasida yashirin iqtisodiyot, qishloq xo'jaligi sohasida yashirin iqtisodiyot, naqdsiz to'lovlar, alkohol mahsulotlari, soliq islohoti.

Abstract. The article examines the main economic sectors in which the shadow economy is observed in the Republic, including agriculture, construction, services, and industry. It also evaluates the effectiveness of measures implemented to combat the shadow economy and analyzes certain economic and institutional risks arising from these measures. Based on the research findings, practical recommendations are developed to reduce the scale of the shadow economy through the improvement of tax administration.

Keywords: shadow economy, shadow economy in construction, shadow economy in agriculture, non-cash payments, alcoholic products, tax reform.

Аннотация. В статье рассматриваются основные сектора экономики, в которых в Республике наблюдается теневая экономика, в частности сельское хозяйство, строительство, сфера услуг и промышленность. Также дана оценка эффективности мер, реализуемых в целях противодействия теневой экономике, и проанализированы отдельные экономические и институциональные риски, возникающие в результате их применения. На основе результатов исследования разработаны практические предложения, направленные на сокращение масштабов теневой экономики за счёт совершенствования налогового администрирования.

Ключевые слова: теневая экономика, теневая экономика в строительстве, теневая экономика в сельском хозяйстве, безналичные платежи, алкогольная продукция, налоговая реформа.



KIRISH

Bizga ma'lumki, mamlakatning har tomonlama rivojlanishi uchun asosiy omillardan biri moliyalashtirish manbalari hisoblanadi. Bu iqtisodiy yoki ijtimoiy soha bo'lishidan qat'i nazar, moliyaviy jihatdan qo'llab-quvvatlash dolzarb masala sanaladi. Barcha sohalarning barqaror rivojlanishi uchun mamlakat iqtisodiy o'sish darajasining yuqori bo'lishi zarurligi umumiy e'tirof etilgan. Bugungi kunda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlardan ko'zlangan asosiy maqsad ham iqtisodiy barqarorlikka erishish orqali inflyatsiya darajasini pasaytirish, kambag'allik va ishsizlik ko'lamini qisqartirish hamda ijtimoiy himoyaga muhtoj aholini qo'llab-quvvatlashdan iborat.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vaziri I. Abdurahmonov 2026-yildan boshlab qishloq xo'jaligi mahsulotlariga qo'shilgan qiymat solig'ining bekor qilinishi respublikadagi barcha fermerlarning yarmiga, ya'ni taxminan 48 ming nafar fermerga ta'sir ko'rsatishini ta'kidlagan. Bashoratlarga ko'ra, mazkur chora natijasida qishloq xo'jaligida rentabellik darajasi hozirgi 5–7 foizdan kelgusida 15 foizgacha oshishi kutilmoqda¹.

Shuningdek, Savdo-sanoat palatasi raisi D. Vahobov qishloq xo'jaligi mahsulotlari (paxta va g'alladan tashqari) bo'yicha qo'shilgan qiymat solig'ining hisobga olinmasligi tadbirkorlarning rasmiy iqtisodiyotdan chetda qolishiga olib kelganini, yangi o'zgarishlar esa fermerlarga naqdsiz hisob-kitoblarga o'tish, xufiyona faoliyatdan chiqish hamda takroriy ekinlar yetishtirish imkonini berishi mumkinligini qayd etgan.²

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda naqdsiz hisob-kitoblarni ommalashtirish, biznes yuritishda raqobat muhitini yanada rivojlantirish, mamlakatimizda yashirin iqtisodiyot ulushini qisqartirishning samarali mexanizmlarini joriy etish hamda biznes faoliyatini soya iqtisodiyotidan chiqarishni rag'batlantirish masalalari o'rganildi. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 10-dekabrda PF-246-son Farmoni bilan joriy etilgan yangiliklarning ijobiy va salbiy oqibatlari tahlil qilindi. Shuningdek, aniqlangan muammolarni bartaraf etish yuzasidan tegishli xulosa va takliflar shakllantirildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

So'nggi yillarda mamlakatimizda amalga oshirilgan islohotlar Prezidentimiz tomonidan qabul qilingan qarorlar natijasida sezilarli darajada iqtisodiy o'sishga erishilmoqda. Jumladan, 2014-yilda ishlab chiqarilgan yalpi ichki mahsulot (YalM) hajmi 210,9 trln so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2024-yil yakuni bilan ushbu ko'rsatkich 1 535,4 trln so'mga yetib, 1 324,5 trln so'mga yoki yetti barobardan ortiq miqdorga oshgan.

Biroq har qanday islohotlardan ko'zlangan maqsadga to'liq erishish uchun, avvalo, mavjud muammolarni bartaraf etishga qaratilgan samarali chora-tadbirlarni amalga oshirish zarur. Bugungi kunda respublikada iqtisodiy rivojlanish jarayonlari kuzatilayotgan bo'lsa-da, ushbu rivojlanishning yanada jadal va barqaror bo'lishiga salbiy ta'sir ko'rsatayotgan asosiy omillardan biri sifatida yashirin va norasmiy iqtisodiyot ulushining yuqoriligi saqlanib qolmoqda.

1-jadval. 2024-yilda jami kuzatilmaydigan (yashirin) iqtisodiyotning tarmoqlar kesimidagi ulushi³

Tarmoq nomi	Kuzatilmaydigan hajm (so'm)	YalMdagi ulushi (%)
Qishloq xo'jaligi, o'rmon, baliqchilik	321,58 trln	63,6
Qurilish	209,09 trln	41,3
Xizmat ko'rsatish	202,99 trln	40,1
Sanoat	45,09 trln	8,9
Jami	505,65 trln	34,8

Qishloq xo'jaligi, o'rmon va baliqchilik sohasida yashirin iqtisodiyot ulushi eng yuqori bo'lib, 63,6 foizni yoki 321,6 trln so'mni tashkil etmoqda. Shuningdek, qurilish sohasida yashirin iqtisodiyot ulushi 41,3 foizni yoki 209,09 trln so'mni tashkil etadi. Qishloq xo'jaligi va qurilish tarmoqlarida norasmiy faoliyat hajmi YalMning deyarli yarmiga yaqin qismini egallamoqda. Bu, xususan, ekinlarni to'liq ko'rsatmaslik, tovarlarni naqdsiz

1 <https://kun.uz/kr/25904887?utm>

2 2025 йил июль-август ойларида Савдо саноат палатаси масъул ташкилотлар билан ҳамкорликда Президент билан ўтказиладиган “Очиқ мулоқот” олдидан қишлоқ хўжалиги йўналишидаги тadbirkorлар билан учрашувдаги маърузасидан.

3 <https://www.uzdaily.uz/uz/kuzatilmaydigan-iqtisodiyot-hajmi-505-trln-somdan-oshdi/>



hisob-kitoblarsiz sotish, ruxsatsiz obyektlar qurilishi, subpudratchilar tarmog'i va naqd pul operatsiyalari orqali yashirilgan ishlarni anglatadi.

Respublikada yashirin va norasmiy iqtisodiyot ulushini qisqartirish yuzasidan ko'plab chora-tadbirlar va normativ-huquqiy hujjatlar ishlab chiqilmoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 10-dekabrda "Naqdsiz hisob-kitoblarni ommalashtirish va yashirin iqtisodiyot ulushini qisqartirishga qaratilgan qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-246-son⁴ Farmoni qabul qilinib, mazkur hujjatda ushbu yo'nalishdagi ishlarni yanada jadallashtirish va izchil davom ettirishga doir muhim vazifalar belgilab berildi.

Farmon qabul qilinishi natijasida 2030-yilga qadar yashirin iqtisodiyot ulushini qisqartirish bo'yicha asosiy maqsadli ko'rsatkichlar quyidagilar etib belgilandi:

- (a) yalpi ichki mahsulotga nisbatan kuzatilmaydigan iqtisodiyot ulushini 1,3 baravar qisqartirish;
- (b) savdo va xizmat ko'rsatish sohaslarida aholi tomonidan to'lovlarni naqdsiz shaklda amalga oshirish ulushini 75 foizga yetkazish;
- (v) iqtisodiyotning rasmiy sektorida band aholining jami iqtisodiy faol aholiga nisbatan ulushini 64 foizga yetkazish;
- (g) Iqtisodiy erkinlik indeksi hamda Korruptsiyani idrok etish indeksida O'zbekiston Respublikasining o'rnini kamida 30 pog'onaga yaxshilash.

Farmonga muvofiq, 2026-yil 1-apreldan boshlab ayrim to'lovlar faqat bank kartalari yoki elektron to'lov tizimlari orqali amalga oshiriladi. Ular qatoriga davlat xizmatlari uchun to'lovlar, elektr energiyasi, tabiiy gaz va ichimlik suvi uchun to'lovlar (bank kassalaridan tashqari), alkogol va tamaki mahsulotlari xaridi, AYoQSh hamda elektr transport vositalarini quvvatlash xizmatlari kiradi.

Qiymati 25 million so'mdan oshadigan tovar va xizmatlar (qishloq xo'jaligi mahsulotlaridan tashqari) faqat naqdsiz shaklda amalga oshiriladi. Hujjatga muvofiq, ko'chmas mulk obyektlari hamda M, N, O toifali (ishlab chiqarilganiga 10 yildan oshmagan) avtotransport vositalarini, shu jumladan maxsus texnikani xarid qilishda to'lovlar faqat bank o'tkazmalari orqali qabul qilinadi. Bunda oldi-sotdi shartnomalari bo'yicha sotuvchi va xaridor o'rtasidagi hisob-kitoblar bank va notarial organlarning axborot tizimlari o'rtasida ma'lumot almashinuvi orqali amalga oshiriladi (bank kassalari orqali amalga oshiriladigan to'lovlar bundan mustasno). Shartnomalarni notarial tartibda rasmiylashtirish uchun tijorat banklari va to'lov tashkilotlari tomonidan elektron axborot almashinuvi orqali to'lovni tasdiqlovchi ma'lumotlar asos bo'ladi.

Markaziy bank tomonidan 2026-yil 1-yanvarga qadar barcha savdo va xizmat ko'rsatuvchi yuridik shaxslar uchun elektron to'lovlarni qabul qilish maqsadida yagona QR-kod tizimi joriy etilishi belgilandi. 2026-yil 1-iyuldan boshlab barcha savdo va xizmat ko'rsatish sohasidagi yuridik shaxslarda yagona QR-kodli to'lov tizimi orqali to'lovlarni qabul qilish majburiy etib belgilandi. Yagona QR-kodlardan foydalanmaslik savdo qoidalarini buzish deb hisoblanadi.

Shuningdek, 2026-yil 1-yanvardan boshlab import qilingan oziq-ovqat mahsulotlarining to'qqiz oy (go'sht va ho'l meva-sabzavotlar uchun uch oy) davomida sotilmaganligi hamda qiymati bazaviy hisoblash miqdorining 500 baravaridan ortiq bo'lgan ushbu mahsulotlar qoldiqda turgan holatlari sayyor soliq tekshiruvini o'tkazish uchun asos hisoblanadi. Ko'chmas mulk obyektlari va qurilish materiallari bo'yicha soliq solish bazasi ushbu tovarlarning bozor bahosidan kelib chiqib aniqlanadi. Qurilish va savdo sohaslaridagi yuridik shaxslar tomonidan ustav kapitali va undagi o'zgarishlar, jumladan ustav kapitaliga kiritilgan tovarlar to'g'risidagi ma'lumotlar hisobga olinib, mazkur operatsiyalar amalga oshirilganidan so'ng 15 kun muddatda shaxsiy kabinet orqali soliq organlari ma'lumotlar bazasida majburiy aks ettiriladi.

Transport vazirligiga tadbirkorlik subyektlarini jalb qilgan holda 2026-yil 1-aprelga qadar yuk tashish va maxsus avtotransport vositalari xizmatlari hisobini onlayn yuritishni nazarda tutuvchi elektron platformani ishlab chiqish vazifasi yuklatildi.

Qabul qilingan qaror va farmonlarda mamlakatimiz iqtisodiy barqaror rivojlanishini ta'minlash hamda yashirin iqtisodiyot ko'lamini keskin qisqartirishga qaratilgan muhim vazifalar belgilangan. Albatta, to'lovlarning elektronlashtirilishi va onlayn platformalarning joriy etilishi biznes uchun qulay sharoit yaratish bilan birga, yashirin iqtisodiyot ulushini qisqartirishda yuqori samaradorlikka ega mexanizm bo'lib xizmat qiladi. To'lovlarning to'liq elektron shaklga o'tkazilishi mamlakat iqtisodiyotida xufiyona iqtisodiyot deyarli mavjud emasligi haqida xulosa chiqarish imkonini beradi, chunki elektron to'lovlarni bank tizimidan tashqari aylantirish deyarli imkonsizdir. Bugungi kunda dunyoning ko'plab rivojlangan davlatlari yashirin iqtisodiyot muammosini bartaraf etishda elektron to'lovlar va elektron valyuta tizimlariga o'tishni samarali yechim sifatida e'tirof etmoqda.

Biroq Farmonda belgilangan vazifalarni amalga oshirish jarayonida muayyan muammolar yuzaga kelishi ehtimoldan xoli emas. Jumladan, naqdsiz to'lovlarga to'liq o'tishda qishloq hududlarida bank kartalari, internet va smartfonlardan foydalanish darajasining pastligi, keksalar va raqamli savodxonligi past aholining

4 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 10-dekabrda "Naqdsiz hisob-kitoblarni ommalashtirish va yashirin iqtisodiyot ulushini qisqartirishga qaratilgan qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-246-son Farmoni: <https://lex.uz/uz/docs/-7897630>

moslashishdagi qiyinchiliklari, texnik uzilishlar, elektron to'lov tizimlaridagi komissiyalar hamda kichik biznes uchun texnik va dasturiy ta'minot xarajatlarining yuqoriligi muammolarni keltirib chiqarishi mumkin.

Shuningdek, qiymati 25 million so'mdan yuqori bitimlarni faqat naqdsiz shaklda amalga oshirish ayrim bozor segmentlarida moslashuv muammolarini yuzaga keltirishi, ko'chmas mulk va avtotransport bo'yicha to'lovlarni faqat bank orqali amalga oshirish jarayonida axborot tizimlari o'rtasida integratsiya yetarli darajada yo'lga qo'yilmaganligi sababli uzilishlar kuzatilishi mumkin. Yagona QR-kod tizimini joriy etishda aholi va kichik savdo nuqtalarining tayyorgarlik darajasi ham muhim omil hisoblanadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda, yashirin iqtisodiyot ulushining yuqoriligi mamlakat iqtisodiy rivojlanishining barqarorligiga, davlat budjeti daromadlarining shakllanishiga hamda ijtimoiy adolat tamoyillariga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Ushbu muammoni hal etishda faqat ma'muriy choralar bilan cheklanib qolmasdan, iqtisodiy rag'batlantirish mexanizmlarini takomillashtirish, soliq tizimini soddalashtirish va uning shaffoqligini oshirish muhim ahamiyat kasb etadi. Aholi va tadbirkorlik subyektlarining huquqiy ongi hamda iqtisodiy madaniyatini oshirish, raqamli texnologiyalarni keng joriy etish orqali hisob-kitoblar shaffoqligini ta'minlash va davlat nazoratini samarali tashkil etish yashirin iqtisodiyot ulushini qisqartirishga xizmat qiladi. Mazkur chora-tadbirlarni kompleks va izchil amalga oshirish orqali iqtisodiyotda rasmiy sektor ulushini kengaytirish, investitsiya muhitini yaxshilash hamda barqaror iqtisodiy o'sishga erishish imkoniyati yaratiladi.

Mazkur muammolarni bartaraf etish maqsadida quyidagilar taklif qilinadi:

- Qishloq joylarda yoki internet aloqasi yaxshi bo'lmagan hududlarda vaqtinchalik "o'flayn to'lov" rejimini saqlab qolish.
- Kommunal va davlat xizmatlari bo'yicha elektron to'lovlarda komissiyalarni qonun bilan foizsiz amalga oshirilishini belgilash.
- Umumiy daromadida QR-kod orqali to'lovlar ulushi 80 foizdan oshgan tadbirkorlik subyektlariga soliq stavkalaridan vaqtinchalik chegirmalar berish.
- Ko'chmas mulk va avtotransport bitimlari bo'yicha integratsiyalashgan onlayn platformada texnik uzilishlar yuzaga kelganda yoki tizim ishlamagan holatlarda bank kassasi orqali to'lov amalga oshirilgan taqdirda bitimni tasdiqlash mexanizmini joriy etish.
- Bozor bahosini hisoblashda har bir hudud uchun ochiq baholar reyestrini joriy etish.
- Import mahsulotlari bo'yicha ayrim tovarlar uchun saqlanish muddati va bozor kon'yunkturasini (sotilish darajasini) inobatga olish.
- Bir oy davomida fuqaroning plastik kartochkasi orqali 30 ta va undan ortiq tranzaksiya amalga oshirilganda yoki 50 mln so'mdan ortiq mablag' mazkur plastik kartochkaga kelib tushganda, plastik kartochka egasi to'g'risidagi to'liq ma'lumotlarni Markaziy bank tomonidan Soliq qo'mitasiga taqdim etish mexanizmini joriy etish. Bunda:
 - o to'lov tashkilotlariga (Payme, Click va boshqa mobil ilovalar) fuqaro plastik kartochkasidan to'lovni amalga oshirayotganda to'lov maqsadini (xarid yoki xizmat, qarz, xayriya va boshqalar) ko'rsatish uchun majburiy katakcha (maydon) yaratish vazifasini yuklash;
 - o to'lov tashkilotlari zimmasiga plastik kartochkalar orqali amalga oshirilgan to'lovlar ichidan faqat xarid yoki xizmat uchun bajarilgan to'lovlar bo'yicha to'liq ma'lumotlarni Soliq qo'mitasiga taqdim etish majburiyatini yuklash.
- Soliq qo'mitasi mazkur ma'lumotlarga aniqlik kiritgan holda deklaratsiya asosida soliqqa tortish tizimini yo'lga qo'yishi lozim.
- Bankomatlar orqali naqd pul yechib olish bo'yicha bir oy uchun 50 mln so'm miqdorida cheklov belgilash.
- Aholi va tadbirkorlar o'rtasida elektron to'lov tizimlaridan foydalanishning afzalliklari, xususan yashirin iqtisodiyot ulushini qisqartirish va soliq tushumlarini barqaror oshirishdagi o'rni haqida tizimli tushunchani shakllantirishga qaratilgan keng qamrovli raqamli moliyaviy savodxonlik dasturlarini joriy etish.
- Xorijiy mamlakatlar tajribasida barcha to'y tadbirlari mehmonxonalarda o'tkaziladi, mehmonxonalardagi restoranlar esa ko'pi bilan 250 kishiga mo'ljallangan bo'ladi. To'y tadbirlarini tartibga solish bo'yicha hukumat qarorlari ijrosini ta'minlash maqsadida har bir hududning salohiyati hamda to'y xizmatlari uchun mo'ljallangan mehmonlar sonidan kelib chiqib minimal soliqqa tortish miqdorini joriy etish;
- Nahorgi osh va kechki bazmlar uchun alohida soliq stavkalarini belgilash;
- Tajriba tariqasida Toshkent shahri va viloyat markazlaridagi to'yxonalar uchun amalga oshiriladigan to'lovlarni faqat naqdsiz (elektron) shaklda bajarishni joriy etish.

Shuningdek, ortiqcha sarf-xarajatlarni kamaytirish va dabdababozlikning oldini olish maqsadida to'yxonalardan boshqa tadbirkorlik faoliyatlarida samarali foydalanish choralari belgilash, xususan ularni



supermarket, gipermarket, madaniyat saroyi, konsert yoki kinoteatr zallariga aylantirish yoxud hudud joylashuvidan kelib chiqib boshqa madaniy xizmat ko'rsatish faoliyatlariga moslashtirish ishlarini bosqichma-bosqich amalga oshirish taklif etiladi.

- Yirik naqd (xorijiy) pul aylanmasi mavjud bo'lib, xizmat ko'rsatishdan tushgan tushumlarni yashirish holatlari ko'p uchraydigan to'y tadbirlariga taklif etiladigan san'atkorlarga to'lovlarni shartnoma asosida naqdsiz shaklda, bank hisob-raqamlariga amalga oshirish mexanizmini joriy etish.

Qozog'iston tajribasi misolida O'zbekistonda ham daromadlar va xarajatlarni bosqichma-bosqich umumiy deklaratsiyalash mexanizmini joriy etish maqsadga muvofiq. Jumladan:

- 1-bosqichda 2027-yildan boshlab – davlat xizmatchilari va ularning turmush o'rtoqlari;
- 2-bosqichda 2028-yildan boshlab:
 - o yuridik shaxslarning rahbarlari, ta'asischilari (ishtirokchilari) va ularning turmush o'rtoqlari;
 - o yakka tartibdagi tadbirkorlar va ularning turmush o'rtoqlari;
- 3-bosqichda 2029-yildan boshlab – aholining barcha qatlamlarini umumiy deklaratsiyalash tizimiga o'tkazish mumkin.

Mazkur tizim joriy etilishi natijasida korrupsiyaviy holatlarning oldi olinishi, soliq ma'murchiligi xarajatlarning qisqarishi hamda tadbirkorlik subyektlari faoliyatida inson omilisiz soliq nazorati qamrovining kengayishi, shuningdek soliq solish bazasining oshishiga erishiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 10-dekabrdagi "Naqdsiz hisob-kitoblarni ommalashtirish va yashirin iqtisodiyot ulushini qisqartirishga qaratilgan qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-246-son Farmoni.: <https://lex.uz/uz/docs/-7897630>
2. <https://www.uzdaily.uz/uz/kuzatilmaydigan-iqtisodiyot-hajmi-505-trln-somdan-oshdi/>
3. Iqtisodiyot va moliya vazirligining rasmiy sayti ma'lumotlari.
4. Milliy statistika qo'mitasining rasmiy sayti ma'lumotlari.
5. Pulatov D. et al. O'zbekistonda investitsion jozibadorlikning ortib borishi jahon miqyosida joriy etilayotgan Business Ready reytingidagi baholash natijalarida yaqqol namoyon bo'lmoqda // Muhandislik va iqtisodiyot. – 2025. – T. 3. – № 11.
6. Pulatov D., Voronin S., Otabekov O. 2022. Impact of Trade Policy Liberalization on Chemical Industry: Case Study of Uzbekistan. IFRS: Global Rules & Local Use – Beyond the Numbers, Volume 10. Mavjud: <https://www.aauni.edu/wp-content/uploads/2022/10/ifrs2022-book-of-abstracts-1.pdf>

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Abdurahmon Qurbonov

2026. № 1

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100